515. To'g'ri burchakli uchburchakning yuzi 60 dm^2 ga, perimetri 40 dm ga teng. Uning katetlari uzunliklarini toping (dm). A) 4 va 12. B) 7 va 11. C) 7 va 13. D) 8 va 15.

516. ABC uchburchakda $AM=m$ va $BN=n$ medianalar o'zaro perpendikular bo'lsa, shu uchburchakning yuzi qanday bo'ladi?
A) $1/3mn$. B) $2/3mn$. C) mn. D) $2mn$.

517*. ABC uchburchakda $AC=5$, $BC=4$ va $\angle ACB=120°$ bo'lsa, uning yuzi qanday bo'ladi? A) $5\sqrt{3}$. B) $6\sqrt{5}$. C) $10\sqrt{2}$. D) $12\sqrt{2}$.

518. ABC uchburchakda $AB=3$, $BC=7$ va mediana $BM=4$ bo'lsa, uning yuzi qanday bo'ladi? A) $3\sqrt{3}$. B) $3\sqrt{6}$. C) $6\sqrt{3}$. D) $12\sqrt{3}$.

519. Uchburchakning tomonlari 5, 6 va 7 cm ga teng. Uning yuzini toping (cm^2).
A) 6. B) 8. C) $5\sqrt{5}$. D) $6\sqrt{6}$.

520. Bir uchburchakning asosi 9 cm ga, balandligi 4 cm ga teng. Shu uchburchakka tengdosh va asosi 18 cm bo'lgan uchburchakning balandligini toping (cm).
A) 2. B) 2,5. C) 3. D) 4.

521. To'g'ri burchakli uchburchakning gipotenuzasi 6,4 ga teng. Gipotenuza bilan o'tkir burchakning bissektrisasi 22,5° burchak tashkil qiladi. Berilgan uchburchakning yuzini toping. A) 9,8. B) 10,24. C) 20,48. D) 102,4.

522. Rasmda berilgan ADE va BDC uchburchaklar yuzlarining ayirmasini toping.
A) 2. B) 4. C) 5. D) 8.



523. M va N nuqtalar ABC uchburchakning AB va AC tomonlari o'rtasida yotadi. ANM uchburchakning perimetri 21 cm bo'lsa, ABC uchburchakning perimetri qanday (cm) bo'ladi?
A) 42. B) 50. C) 63. D) 84.

524. ABC uchburchak berilgan. AB tomonga parallel to'g'ri chiziq AC tomonni A_1 nuqtada, BC tomonni B_1 nuqtada kesib o'tadi. $AB=15$ cm, $AA_1:AC=2:3$. A_1B_1 kesma uzunligini toping (cm). A) 2. B) 3. C) 4. D) 5.

525. To'rtburchak diagonallarining yig'indisi 18 cm ga teng. Bu to'rtburchak tomonlari o'rtalarini ketma-ket tutashtirish natijasida hosil qilingan to'rtburchakning perimetrini toping (cm). A) 9. B) 18. C) 20. D) 36.

526. To'g'ri to'rtburchakning bo'yi kvadratning tomonidan 8 m uzun, eni esa shu kvadratning tomonidan 4 m kalta. Kvadrat tomonini x bilan belgilab, to'rtburchak perimetri va yuzi uchun ifoda tuzing.
A) $P=4x+2$; $S=(x+8)(x-4)$.
B) $P=4(x+2)$; $S=(x+8)(x-4)$.
C) $P=4x+8$; $S=4(x+8)$.
D) $P=4x+4$; $S=x^2+4x-18$.

527. To'g'ri to'rtburchakning tomonlari $3+2a$ va $9+a$ bo'lsin. a ning qanday qiymatida bu to'rtburchak kvadratga aylanadi?
A) 5. B) 6. C) 8. D) 9.

528. To'g'ri to'rtburchakning yuzi 72 ga, tomonlari nisbati 2:1 ga teng. Uning perimetrini toping. A) 18. B) 24. C) 32. D) 36.

529. To'g'ri burchakli uchburchakning katetlari 3 va 5 ga teng bo'lib, bu uchburchakka u bilan umumiy to'g'ri burchakka ega bo'lgan kvadrat ichki chizilgan. Kvadratning yuzini toping. A) $\frac{7}{8}$. B) $\frac{15}{8}$. C) $\frac{225}{128}$. D) $\frac{225}{64}$.

530. $ABCD$ to'g'ri to'rtburchakda $AD=1$. AB tomonda shunday P nuqta olinganki, DB va DP kesmalar $\angle ADC$ ni teng uchga bo'ladi. BDP uchburchakning perimetrini toping.
A) $2+2\sqrt{2}$. B) $3+\sqrt{3}/3$.
C) $3+\sqrt{5}/2$. D) $2+4\sqrt{3}/3$.

531. Yuzi 120 cm^2, diagonali esa 17 cm bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning tomonlarini toping (cm).
A) 12; 10. B) 15; 8. C) 16; 12. D) 30; 4.

532. To'g'ri to'rtburchakning tomonlari 3 va 4 bo'lsa, diagonallari orasidagi kichik burchakning kosinusi qanday bo'ladi?
A) $\frac{\sqrt{7}}{25}$. B) $\frac{2\sqrt{6}}{25}$. C) $\frac{7}{25}$. D) $\frac{24}{25}$.

533. $ABCD$ to'g'ri to'rtburchakda $AB=5$, $BC=3$. CD tomonda F va G nuqtalar shunday olinganki, $DF=1$ va $CG=2$. AF va BG to'g'ri chiziqlar E nuqtada kesishadi. AEB uchburchakning yuzini toping.
A) 10. B) 21/2. C) 23/2. D) 25/2.

534. Parallelogramm qo'shni tomonlarining ayirmasi 4 cm. O'tmas burchagi uchidan tomonlariga tushirilgan balandliklari 6 va 8 cm ga teng. Parallelogrammning perimetrini toping (cm). A) 54. B) 56. C) 58. D) 64.

535. To'g'ri to'rtburchakda $BK=KA$, $AB=6$, $AD=4$. KCD uchburchakning yuzini toping.
A) 10. B) 12. C) 14. D) 16.



536. Parallelogramm tomonlari 4 va 6 ga teng bo'lsa, uning bissektrisasi diagonalini qanday nisbatda bo'ladi?
A) 1:3. B) 4:7. C) 2:3. D) 5:6.

537. Parallelogrammning yuzi 32 ga, balandliklari 4 va 5,(3) ga teng bo'lsa, uning perimetri qanday bo'ladi?
A) 18. B) 20. C) 28. D) 36.

538. $ABCD$ parallelogrammda $BD=4\sqrt{2}$, $\angle ADB=60°$, $\angle CDB=75°$ bo'lsa, AB qanday bo'ladi?
A) $3\sqrt{3}$. B) $4\sqrt{3}$. C) $5\sqrt{3}$. D) $6\sqrt{2}$.

539. Parallelogrammning 5 ga teng bo'lgan diagonali uning 12 ga teng bo'lgan yon tomoniga perpendikular. Parallelogrammning katta tomoniga tushirilgan balandligini toping.
A) $3\frac{6}{13}$. B) $3\frac{8}{13}$. C) $4\frac{5}{13}$. D) $4\frac{8}{13}$.

540. Parallelogrammning diagonali uning 8 cm li tomoni bilan 60° li, ikkinchi tomoni bilan esa 75° li burchak tashkil etadi. Ushbu diagonalning uzunligini (cm) toping. A) $4(\sqrt{3}-1)$.
B) $8(\sqrt{3}-1)$. C) $4(\sqrt{3}+1)$. D) $8(\sqrt{3}+1)$.

541. AC asosli ABC teng yonli uchburchakka $FBDG$ parallelogramm shunday ichki chizilganki, B uchdagi burchak umumiy, G nuqta esa AC asosda yotadi. Agar $BC=14$ cm bo'lsa, parallelogrammning perimetri qanday bo'ladi (cm)? A) 14. B) 20. C) 24. D) 28.

542. Agar $\angle PKN=75°$, $PK=5\sqrt{2}$, $PM=26$ va diagonallari orasidagi burchak 60° bo'lsa, $KMNP$ parallelogrammning yuzi qanday bo'ladi? A) 65. B) 120. C) 130. D) 150.

543. Rombning yuzi S, diagonallarining nisbati $m:n$ kabi bo'lsa, uning perimetri qanday bo'ladi? A) $\sqrt{\frac{mn}{4S(m^2+n^2)}}$. B) $\sqrt{\frac{2S(m^2+n^2)}{mn}}$. C) $\sqrt{\frac{4mn}{S(m^2+n^2)}}$. D) $\sqrt{\frac{8S(m^2+n^2)}{mn}}$.

544. Tomoni diagonallarining o'rta proporsional qiymatiga teng bo'lgan rombning o'tmas burchagini toping. A) $\operatorname{arctg}(\sqrt{2}-\sqrt{3})$. B) 120°. C) 135°. D) 150°.

545. Rombning balandligi 12 ga, diagonallaridan biri 15 ga teng bo'lsa, uning yuzi qanday bo'ladi? A) 100. B) 125. C) 150. D) 180.

546. Perimetri 40 cm ga, diagonallari yig'indisi 28 cm ga teng bo'lgan rombning yuzini toping (cm^2). A) 72. B) 96. C) 104. D) 128.

547. $ABCD$ trapetsiyada $AD\|BC$, $2AB=2BC=AD$ munosabatlar o'rinli. $\angle ACD$ necha gradusga teng? A) 30. B) 45. C) 60. D) 90.

548. Teng yonli trapetsiyaning diagonali yon tomoniga perpendikular. Uning kichik asosi 2 cm, balandligi $\sqrt{24}$ cm bo'lsa, katta asosi qanday (cm)? A) 6. B) 8. C) 10. D) $2\sqrt{24}$.

549. To'g'ri burchakli trapetsiyaning kichik diagonali 15 cm bo'lib, yon tomoniga perpendikular. Trapetsiyaning kichik yon tomoni 12 cm bo'lsa, yuzi qanday bo'ladi (cm^2)? A) 196. B) 200. C) 204. D) 244.

550. Trapetsiya asoslarining uzunliklari 28 va 10 ga teng. Uning diagonallari o'rtalarini tutashtiruvchi kesmaning uzunligini aniqlang. A) 7. B) 8. C) 9. D) 10.

551. Qavariq ko'pburchakning bir uchidan chiqqan diagonalari soni 47 ta. Uning tomonlari nechta? A) 48. B) 49. C) 50. D) 51.

552. Beshburchakning ichki burchaklari yig'indisi qanday? A) 540°. B) 560°. C) 580°. D) 720°.

553. Bir burchagi botiq, qolgan burchaklari qavariq bo'lgan beshburchakning ichki burchaklari yig'indisini toping. A) 450°. B) 540°. C) 720°. D) 960°.

554. Har bir ichki burchagi markaziy burchagidan 10 marta katta bo'lishi uchun ko'pburchakning nechta tomoni bo'lishi kerak? A) 16. B) 22. C) 24. D) 28.

555. Ichki burchaklari yig'indisi tashqi burchaklari yig'indisidan 720° ga katta bo'lgan ko'pburchakning tomonlari sonini toping. A) 5. B) 6. C) 8. D) 10.

556. Qavariq ko'pburchakning 14 ta diagonali bor. Uning tomonlari nechta? A) 5. B) 6. C) 7. D) 8.

557. Muntazam yigirmaburchakning eng uzun va eng kalta diagonallari orasidagi burchakni toping. A) 72°. B) 76°. C) 80°. D) 82°.

558. Agar $A_1A_4=4+\sqrt{32}$ bo'lsa, muntazam sakkizburchak $A_1A_2A_3A_4A_5A_6A_7A_8$ ning perimetri qanday bo'ladi? A) $16\sqrt{2}$. B) 24. C) 32. D) 48.

559. $ABCDEFGH$ muntazam sakkizburchakning yuzi 1 ga teng. $ABEF$ to'g'ri to'rtburchakning yuzini toping. A) $\frac{\sqrt{2}}{4}$. B) $\frac{1}{2}$. C) $\frac{1+\sqrt{2}}{4}$. D) $\frac{3}{2}$.

560. Aylanani 1; 5; 7; 11 sonlarga proporsional uzunlikdagi yoylarga bo'lganda, ularning burchaklari qanday bo'ladi? A) 10°,50°,70°,110°. B) 14°,72°,100°,174°. C) 20°,80°,120°,140°. D) 15°,75°,105°,165°.

561. Doiraning yuzi $6,25\pi$ ga teng. Bu doirada uzunligi 3 ga teng bo'lgan vatar o'tkazilgan. Doira markazidan vatargacha bo'lgan masofani toping. A) 2. B) 2,5. C) 3. D) 4.

562. Aylana yoyining uzunligi 10 cm, u tiralgan markaziy burchak 60° bo'lsa, aylananing radiusi qanday (cm)? A) $15/\pi$. B) $24/\pi$. C) $30/\pi$. D) $36/\pi$.

563. Aylana uzunligi shu aylananing 40° li yoyi uzunligidan necha foiz katta? A) 600. B) 700. C) 800. D) 900.

564. Radiusi r bo'lgan aylananing markazidan vatarigacha bo'lgan masofa $r\sqrt{3}/2$ ga teng bo'lsa, bu vatar tortib turgan yoyning uzunligi qanday bo'ladi? A) $\pi r/2$. B) $\pi r/3$. C) $\pi r/4$. D) $\pi r/6$.

565. To'g'ri burchakli ABC uchburchakda $\angle A=70°$. Uzunligi $BC=12$ cm bo'lgan katetni diametr qilib aylana chizilgan. Aylananing uchburchak ichida yotgan qismining uzunligini toping (cm). A) 2π. B) 3π. C) $2\pi/3$. D) $4\pi/3$.

566. To'rtta nuqta aylanani yoylarining uzunligi maxraji 3 bo'lgan geometrik progressiya tashkil etuvchi bo'laklarga ajratadi. Shu nuqtalarni ketma-ket tutashtirish natijasida hosil bo'lgan to'rtburchakning diagonallari orasidagi kichik burchakni toping. A) 22,5°. B) 30°. C) 45°. D) 60°.

567. To'rtta nuqta aylanani yoylarining uzunligi maxraji 3 bo'lgan geometrik progressiya tashkil etuvchi bo'laklarga ajratadi. Shu nuqtalarni ketma-ket tutashtirish natijasida hosil bo'lgan to'rtburchakning diagonallari orasidagi katta burchakni toping. A) 45°. B) 120°. C) 135°. D) 150°.

568. Radiusi 1 ga teng bo'lgan aylana uchta yoyga bo'lindi. Ularga mos markaziy burchaklar 1, 2 va 3 sonlarga proporsional. Yoylardan eng kattasining uzunligini toping.
A) $\pi/3$. B) $2\pi/3$. C) π. D) $3\pi/2$.

569. Chizmadagi NOE burchakni toping. A) 105°.
B) 110°. C) 120°. D) 135°.



570. Aylananing ikkita kesishuvchi vatarlaridan birining uzunligi 36 cm, ikkinchisi kesishish nuqtasida 18 va 16 cm uzunlikdagi kesmalarga ajraladi. Birinchi vatarning kesmalarini aniqlang. A) 12 va 24.
B) 16 va 20. C) 17 va 19. D) 22 va 14.

571. Radiuslari 1 va 3 cm bo'lgan aylanalar bir-biriga tashqi ravishda urinadi. Urinish nuqtasidan ularning umumiy urinmalarigacha bo'lgan masofani toping (cm).
A) 2/3. B) 4/5. C) 5/6. D) 3/2.

572. Doiraning yuzi $6{,}25\pi$ ga teng. Bu doirada uzunligi 3 ga teng bo'lgan vatar o'tkazilgan. Doira markazidan vatargacha bo'lgan masofani toping. A) 2. B) 2,5. C) 3. D) 4.

573. Radiusi 5 ga teng bo'lgan doiradagi uzunligi 8 ga teng bo'lgan vatardan doira markazigacha bo'lgan masofa qanday?
A) 3. B) 3,2. C) 3,6. D) 4.

574. Ikkita doira radiuslari 1:2 nisbatda. Katta doira aylanasining uzunligi 8π. Kichik doira yuzini toping. A) π. B) 2π. C) 4π. D) 8π.

575. Doiraning yuzi 44% ortishi uchun uning radiusi necha foizga ortishi kerak?
A) 20. B) 25. C) 30. D) 35.

576. Doira markazidan $\sqrt{2}$ birlik uzoqlikda yotuvchi vatar uzunligi 4 birlikka teng. Doira yuzini toping.
A) $(2+\sqrt{2})\pi$. B) 6π. C) 8π. D) 9π.

577. Markazlari bir nuqtada bo'lgan ikki doiradan kattasining radiusi kichiginikidan 20% ga katta. Ular orasidagi halqaning yuzi katta doira yuzidan necha marta kichik?
A) $2\frac{3}{7}$. B) $2\frac{4}{7}$. C) $3\frac{3}{11}$. D) $3\frac{4}{9}$.

578. Radiuslari 2 va 3 ga teng bo'lgan doiralar bir-biriga tashqi ravishda urinadi. Ularning ikkalasi uchinchi doiraga ichki ravishda urinsa va markazlari bir to'g'ri chiziqda yotsa, tashqi doiraning ichki doiralardan tashqaridagi sohasi yuzi qanday bo'ladi?
A) 4π. B) 6π. C) 9π. D) 12π.

579. Radiusi R bo'lgan doiraning markazidan bir tomonda ikkita o'zaro parallel vatar o'tkazildi. Ulardan biri 120° li, ikkinchisi 60° li yoylarni tortib tursa, ular orasidagi maydonning yuzi qanday bo'ladi?
A) $\frac{\pi R^2}{6}$. B) $\frac{\pi R^2}{4}$. C) $\frac{\pi R^2}{3}$. D) $\frac{5\pi R^2}{8}$.

580. Doira yuzining shu doiradagi markaziy burchagi 36° bo'lgan sektor yuziga nisbatini toping. A) 5. B) 10. C) 5π. D) 10π.

581. $A(2; 1)$ nuqtadan o'tib, koordinata o'qlariga urinuvchi aylana tenglamasini tuzing.
A) $(x-1)^2+(y-5)^2=16$.
B) $(x-5)^2+(y-5)^2=25$ yoki $(x-1)^2+(y-1)^2=1$.
C) $(x-3)^2+(y-3)^2=9$. D) $(x-2)^2+(y-4)^2=9$.

582. Uchlari $A(3; 0)$, $B(-3; 8)$, va $C(3; 8)$ nuqtalarda bo'lgan uchburchakka ichki chizilgan aylana tenglamasini toping.
A) $(x-1)^2+(y-6)^2=4$. B) $(x-3)^2+(y+1)^2=2$.
C) $(x-2)^2+(y+6)^2=4$. D) $(x+3)^2+(y-2)^2=1$.

583. To'g'ri burchakli uchburchakning gipotenuzasi c ga, unga ichki chizilgan aylananing radiusi r ga teng bo'lsa, uchburchakning yuzi qanday bo'ladi?
A) $2cr$. B) r^2+cr. C) c^2+cr. D) r^2+c^2.

584. To'g'ri burchakli uchburchakning katetlaridan biri 15 cm ga, ikkinchi katetning gipotenuzadagi proeksiyasi 16 cm ga teng. Bu uchburchakka ichki chizilgan aylananing radiusini toping (cm). A) 3. B) 4. C) 5. D) 6.

585. To'g'ri burchakli uchburchakning katetlari 15 va 20 ga teng. Uchburchakka ichki chizilgan doira markazidan gipotenuzaga tushirilgan balandlikkacha bo'lgan masofani toping.
A) 1. B) 1,5. C) 2. D) 3.

586. Tomonlari 25, 29 va 36 cm bo'lgan uchburchakka ichki chizilgan aylana uzunligini toping (cm). A) 8. B) 8π. C) 10π. D) 16π.

587. Tomonlari 13, 14 va 15 ga teng bo'lgan uchburchakka ichki chizilgan aylana radiusini toping. A) 2. B) 3. C) 4. D) 5.

588. Teng yonli uchburchakka ichki chizilgan aylana urinish nuqtasida yon tomonni uchburchak uchidan boshlab hisoblaganda 2 va 3 cm li qismlarga ajratadi. Uchburchakning yuzini toping. A) 6. B) 12. C) 18. D) 24.

589. ABC uchburchakka ichki chizilgan aylanaga o'tkazilgan urinma BC va AC tomonlarni mos ravishda A_1 va B_1 nuqtalarda kesib o'tadi. Agar $BC=5$, $AC=6$, $AB=7$ bo'lsa, A_1B_1C uchburchakning perimetri qanday bo'ladi? A) 3. B) 4. C) 5. D) 6.

590. Teng yonli uchburchakning yon tomoni 10 cm ga, asosi 12 cm ga teng. Uchburchakka ichki chizilgan aylanaga o'tkazilgan urinmalar uchburchakning asosiga tushirilgan balandligiga parallel va berilgan uchburchakdan ikkita to'g'ri burchakli uchburchak ajratadi. Ushbu uchburchakning tomonlarini toping (cm). A) 2; 2; 3. B) 2; 3; 4.
C) 3; 3; 5. D) 3; 4; 5.

591. Tomonlari 104, 112 va 120 bo'lgan uchburchakka tashqi chizilgan aylana radiusini toping. A) 60. B) 63. C) 64. D) 65.

592. Uchburchakning ikkita tomoni 11, 24 ga, ular orasidagi burchagi 120° ga teng. Shu uchburchakka tashqi chizilgan aylananing radiusini toping.
A) $3\sqrt{2}$. B) $\frac{20}{\sqrt{3}}$. C) $\frac{31}{\sqrt{3}}$. D) $\frac{40}{\sqrt{3}}$.

593. To'g'ri burchakli uchburchakning perimetri 24 cm ga, yuzi 24 cm^2 ga teng. Unga tashqi chizilgan doiraning yuzini (cm^2) toping. A) 20π. B) 25π. C) 30π. D) 35π.

594. Tomonlari $2a$, a^2-1, a^2+1 bo'lgan uchburchakka tashqi chizilgan aylananing radiusini toping. A) aniqlab bo'lmaydi. B) a. C) $(a^2-1)/2$. D) $(a^2+1)/2$.

595*. Uchidagi burchagi 45° bo'lgan teng yonli uchburchakning yuzi $\sqrt{2}+1$ ga teng. Unga tashqi chizilgan doira yuzini toping.
A) π. B) 2π. C) $2\sqrt{2}\,\pi$. D) 3π.

596. Rombning tomoni $10\sqrt{3}$ ga, o'tmas burchagi 120° ga teng. Unga ichki chizilgan doiraning yuzini toping. A) $48{,}75\pi$. B) $52{,}25\pi$. C) $56{,}25\pi$. D) $58{,}6\pi$.

597. Rombning tomoni 4 ga, o'tkir burchagi 30° ga teng. Unga ichki chizilgan aylananing uzunligini toping. A) $\pi/2$. B) π. C) 2π. D) 4π.

598. Aylanaga tashqi chizilgan to'rtburchakning uchta ketma-ket tomonlari nisbati 1:2:3 kabi. Agar to'rtburchakning perimetri 28,8 ga teng bo'lsa, uning eng kichik tomonining uzunligi qanday? A) 3,6. B) 3,8. C) 4. D) 4,5.

599. Ikkita qarama-qarshi tomonlari yig'indisi 45 cm bo'lgan to'rtburchakka aylana ichki chizilgan. Qolgan ikki tomoni 2:3 kabi nisbatda bo'lsa, bu tomonlardan kattasi qanday bo'ladi (cm)? A) 25. B) 26. C) 27. D) 28.

600. r radiusli yarim doiraga ichki chizilgan kvadratning yuzini toping.
A) $2/3r^2$. B) $3/4r^2$. C) $4/5r^2$. D) $5/6r^2$.

601. Trapetsiyaning tomonlari a, a, a va $2a$ bo'lsa, unga tashqi chizilgan aylananing uzunligi qanday bo'ladi?
A) $a\pi$. B) $2a\pi$. C) $3a\pi$. D) $6a\pi$.

602. Asosidagi burchaklari 60° va 30° bo'lgan trapetsiyaga radiusi $3\sqrt{3}$ bo'lgan doira ichki chizilgan. Trapetsiyaning perimetrini toping.
A) 8. B) $2\sqrt{2}$. C) $3\sqrt{3}$. D) $24(1+\sqrt{3})$.

603. To'g'ri burchakli trapetsiyaning asoslari 4 va 6 ga teng. Unga ichki chizilgan aylananing uzunligini toping.
A) 3π. B) $4{,}8\pi$. C) $6{,}4\pi$. D) $9{,}6\pi$.

604. To'g'ri burchakli trapetsiyaga radiusi 5 ga teng aylana ichki chizilgan. Agar trapetsiyaning katta asosi 17 ga teng bo'lsa, aylana markazidan trapetsiyaning o'tkir burchagigacha bo'lgan masofa qanday bo'ladi?
A) 7. B) 9. C) 12. D) 13.

605. r radiusli aylanaga tashqi chizilgan teng yonli trapetsiyaning o'tkir burchagi α bo'lsa, uning yuzi qanday bo'ladi?
A) $r^2\operatorname{tg}\alpha$. B) $2r^2\sin\alpha$. C) $\frac{4r^2}{\sin\alpha}$. D) $\frac{2r^2}{\cos\alpha}$.

606. Markazi $ABCD$ ($BC\|AD$) trapetsiyaning AC diagonalida yotuvchi aylana A va B nuqtalardan o'tib, CD ga C nuqtada urinadi, hamda AD ni E nuqtada kesib o'tadi. Agar $AB=5\sqrt{2}$ va $CD=10\sqrt{13}$ bo'lsa, trapetsiyaning yuzi qanday bo'ladi?
A) 130. B) 134. C) 135. D) 136.

607. Yon tomoni 7,5 cm, yuzi 45 cm^2 bo'lgan teng yonli trapetsiyaga ichki chizilgan doiraning yuzini toping (cm^2).
A) $4{,}5\pi$. B) 6π. C) 8π. D) 9π.

608. Muntazam oltiburchakning tomoni 6 ga teng. Unga tashqi chizilgan aylana radiusini toping. A) 3. B) 6. C) $4\sqrt{3}$. D) 9.

609. Tomoni 12 cm ga teng bo'lgan muntazam oltiburchakka ichki chizilgan doiraning yuzini toping (cm^2).
A) 108π. B) 112π. C) 116π. D) 120π.

610. Aylanaga muntazam uchburchak va muntazam oltiburchak ichki chizilgan. Oltiburchak va uchburchak yuzlarining nisbatini toping. A) 4:1. B) 3:1. C) 2:1. D) 3:2.

611. Aylanaga tomoni $2\sqrt{3}$ cm bo'lgan muntazam oltiburchak tashqi chizilgan. Aylanaga ichki chizilgan kvadratning yuzini toping (cm^2). A) 15. B) 16. C) 18. D) 20.

612. Aylanaga tashqi chizilgan muntazam oltiburchakning tomoni $4\sqrt{2}$ bo'lsa, aylanaga ichki chizilgan kvadratning yuzi qanday bo'ladi? A) 48. B) 50. C) 52. D) 64.

613. Radiusi R bo'lgan aylanaga tashqi chizilgan muntazam n-burchakning tomoni b bo'lsa, shu aylanaga ichki chizilgan muntazam n-burchakning tomoni qanday bo'ladi?
A) $\sqrt{R^2+\frac{b^2}{4}}$. B) $\sqrt{R^2-\frac{b^2}{4}}$.
C) $\frac{2bR}{\sqrt{4R^2+b^2}}$. D) $\frac{2bR}{\sqrt{4R^2-b^2}}$.

614. Muntazam ko'pburchakning tomoni a, unga tashqi chizilgan aylananing radiusi R bo'lsa, unga ichki chizilgan aylananing radiusi qanday bo'ladi? A) $\sqrt{R^2+\frac{a^2}{4}}$.
B) $\sqrt{R^2-\frac{a^2}{4}}$. C) $\frac{2aR}{\sqrt{4R^2+a^2}}$. D) $\frac{2aR}{\sqrt{4R^2-a^2}}$.

615. Muntazam sakkizburchakka tashqi va ichki chizilgan doiralar yuzlarining nisbatini toping. A) $2-\sqrt{2}$. B) $3-2\sqrt{2}$.
C) $4-2\sqrt{2}$. D) $5-3\sqrt{2}$.

616. Tomoni 12 ga teng bo'lgan muntazam oltiburchakka tashqi va ichki chizilgan aylanalar orasidagi sohaning yuzini toping.
A) 20π. B) 24π. C) 30π. D) 36π.

617. $ABCDEF$ muntazam oltiburchakda M va N nuqtalar mos ravishda AB va CD tomonlarning o'rtalari. $BCNM$ trapetsiyaning perimetri 14 ga teng bo'lsa, $ABCDEF$ ga tashqi chizilgan aylana radiusi qanday bo'ladi?
A) 4. B) 5. C) 6. D) 7.

618*. Tekislikni kesmaydigan va uzunligi 17 ga teng bo'lgan kesmaning uchlari tekislikdan 4 va 12 ga teng uzoqlikda joylashgan. Kesmaning tekislikdagi proeksiyasini toping.

A) 10. B) 12. C) 15. D) 16.

619*. α tekislikni kesmaydigan AB kesmaning uchlaridan shu tekislikka uzunliklari AC=3 m va BD=2 m bo'lgan perpendikularlar o'tkazilgan. Agar CD=24 dm bo'lsa, AB kesmaning uzunligi qanday bo'ladi (dm)?
A) 20. B) 24. C) 26. D) 28.

620. A nuqtadan α tekislikka ikkita: AB=20 cm va AC=15 cm og'malar o'tkazilgan. AB og'maning α tekislikdagi proeksiyasi 16 cm bo'lsa, AC og'maning shu tekislikdagi proeksiyasi qanday bo'ladi (cm)?
A) 6. B) 8. C) 9. D) 10.

621. Tekislikdan a masofadagi nuqtadan tekislik bilan 30° li burchak hosil qiluvchi ikkita og'ma o'tkazilgan. Ularning tekislikdagi proeksiyalari o'zaro 120° li burchak hosil qiladi. Og'malarning uchlari orasidagi masofani aniqlang. A) $2a$. B) $3a$. C) $\sqrt{2}\,a$. D) $\sqrt{3}\,a$.

622. Tekislikdan h masofadagi nuqtadan tekislikka o'tkazilgan va tekislik bilan 30° li burchak hosil qiluvchi og'maning uzunligini aniqlang. A) $1{,}5h$. B) $2h$. C) $\sqrt{2}\,h$. D) $\sqrt{3}\,h$.

623. Uzunligi 50 cm bo'lgan kesmaning uchlari berilgan tekislikdan 30 va 44 cm uzoqlikda joylashgan. Kesmaning shu tekislikdagi proeksiyasini toping (cm).
A) 36. B) 42. C) 44. D) 48.

624. A nuqta ikki yoqli to'g'ri burchakning yoqlaridan 6 va 8 ga teng uzoqlikda yotsa, undan ikki yoqli burchakning qirrasigacha bo'lgan masofa qanday bo'ladi?
A) 8. B) 9. C) 10. D) 12.

625. $ABCD$ kvadrat tekisligiga A uchidan AK perpendikular o'tkazilgan. Agar AB=3, BK=4 bo'lsa, K nuqtadan kvadratning C uchigacha bo'lgan masofa qanday bo'ladi?
A) 4. B) 5. C) 6. D) $5\sqrt{2}$.

626. To'g'ri parallelepipedning asosi rombdan iborat bo'lib, diagonal kesimlarining yuzlari S_1 va S_2 bo'lsa, parallelepiped yon sirtining yuzi qanday bo'ladi? A) $S_1^2+S_2^2$.
B) $0{,}5\sqrt{S_1^2+S_2^2}$. C) $\sqrt{S_1^2+S_2^2}$. D) $2\sqrt{S_1^2+S_2^2}$.

627. Muntazam to'rtburchakli prizmaning hajmi 1944 ga, yon sirti $432\sqrt{2}$ ga teng. Prizma asosining simmetriya markazidan ustki asosining uchigacha bo'lgan masofani toping.
A) 8 B) 9. C) 12. D) 15.

628. To'g'ri prizmaning asosi teng yonli uchburchak bo'lib, uning asosi uzunligi 6 ga va asosga yopishgan burchakning sinusi 0,6 ga teng. Prizma asoslari yuzlarining yig'indisi uning yon sirti yuziga teng. Prizmaning hajmini toping. A) 5,75. B) 6,75. C) 7,2. D) 7,5.

629. Muntazam uchburchakli prizmaning hajmi 16 ga teng. Asosi tomonining uzunligi qanday bo'lganda, prizmaning to'la sirti eng katta bo'ladi? A) 2 B) 3. C) 4. D) 6.

630. Uchburchakli piramidaning yon yoqlari asos tekisligi bilan 60°li burchak tashkil etadi. Piramida asosining yuzi 40 ga teng. Uning to'la sirti yuzini toping.
A) 72. B) 80. C) 120. D) 128.

631. Muntazam to'rtburchakli piramidaning balandligi 8 ga, asosining tomoni 12 ga teng. Piramidaning yon yog'iga parallel bo'lib, asosining markazidan o'tgan kesimi yuzini aniqlang. A) 30. B) 45. C) 60. D) 72.

632. To'rtburchakli muntazam piramida asosining tomoni 10 m, balandligi 12 m bo'lsa, to'la sirtining yuzi qanday bo'ladi (m^2)?
A) 345. B) 360. C) 480. D) 540.

633. Muntazam o'nikkiburchakli piramidaning apofemasi $2\sqrt{2}$ ga teng, barcha yon yoqlari asos tekisligiga 45° burchak ostida og'ishgan. Uning hajmini toping. A) $64-32\sqrt{2}$.
B) $64-32\sqrt{3}$. C) $64-30\sqrt{2}$. D) $68-48\sqrt{2}$.

634. Konusning balandligi 24 ga, o'q kesimining perimetri 72 ga teng. Uning hajmini toping. A) 400π. B) 720π. C) 800π. D) 960π.

635. Uchburchakli piramidaning yon qirralari o'zaro perpendikular va uzunliklari $\sqrt{70}$, $\sqrt{99}$ va $\sqrt{126}$ ga teng. Uning hajmini toping.
A) $2\sqrt{110}$. B) $16\sqrt{33}$. C) $4\sqrt{68}$. D) $21\sqrt{55}$.

636. Uchburchakli piramidaning asosi tomonlari 9; 12 va 15 ga teng bo'lgan uchburchakdan iborat. Piramidaning barcha yon yoqlari asos tekisligi bilan 60° li burchak tashkil etadi. Uning hajmini toping.
A) $27\sqrt{3}$. B) $54\sqrt{3}$. C) $108\sqrt{3}$. D) $162\sqrt{3}$.

637. Uchburchakli piramidaning asosi tomonlari 4; 4 va 2 ga teng bo'lgan uchburchakdan iborat. Piramidaning barcha yon yoqlari asos tekisligi bilan 60° li burchak tashkil etadi. Uning hajmini toping.
A) $\sqrt{3}$. B) 3. C) $2\sqrt{3}$. D) 6.

638. Kesik piramida asoslarining yuzlari 96 va 24 ga, unga mos keluvchi butun piramidaning balandligi 16 ga teng. Kesik piramidaning hajmini toping.
A) 384. B) 424. C) 436. D) 448.

639. To'rtburchakli muntazam prizmaga ichki chizilgan silindr yon sirti yuzining prizma yon sirti yuziga nisbatini toping.
A) $\pi/4$. B) $\pi/2$. C) 2. D) 4.

640. Yon sirti 60π ga, balandligi 2 ga teng bo'lgan silindr asosining diametrini toping.
A) 10. B) 15. C) 20. D) 30.

641. Yuzi Q ga teng bo'lgan kvadratning biror tomoni atrofida aylanishidan hosil bo'lgan jismning sirti yuzini aniqlang.
A) $4\pi Q$. B) $4{,}5\pi Q$. C) $6\pi Q$. D) $8\pi Q$.

642. Balandligi asosining diametriga teng bo'lgan silindrning yon sirti 16π ga teng. Silindr asosining diametrini toping.
A) 1. B) 2. C) 4. D) 8.

643. Silindr yon sirtining yuzi 50π ga teng. Agar asoslari yuzlarining yig'indisi ham shunday bo'lsa, uning hajmi qanday bo'ladi?
A) 125π. B) 128π. C) 144π. D) 196π.

644. Silindrning balandligi 16 cm, asosining radiusi 10 cm. Uning o'qidan 60 mm masofada o'qqa parallel kesim o'tkazilgan. Shu kesimning yuzini toping (cm^2)?
A) 196. B) 208. C) 216. D) 256.

645. Silindrning balandligi H ga teng. Uning yon sirti yoyilganda yasovchisi bilan diagonali 60° burchak tashkil qilsa, uning hajmi qanday bo'ladi?
A) $6\pi H^3$. B) $\frac{H^3}{3\pi}$. C) $\frac{3H^3}{4\pi}$. D) $\frac{3H^3}{2\pi}$.

646. Teng tomonli silindrning va teng tomonli konusning balandliklari o'zaro teng. Ularning to'la sirtlari nisbatini toping.
A) 3:8. B) 3:4. C) 3:2. D) 5:3.

647. Konusning o'q kesimi muntazam uchburchakdan, silindrniki esa kvadratdan iborat. Agar konus hajmining silindr hajmiga nisbati $\sqrt{3}:2$ kabi bo'lsa, ularning to'la sirtlari nisbati qanday bo'ladi?
A) 3:2. B) $\sqrt{3}:\sqrt{2}$. C) $\sqrt[3]{9}:2$. D) $\sqrt[3]{3}:\sqrt[3]{2}$.

648. Asoslarining radiuslari 2 va $\sqrt{101}-1$ ga teng bo'lgan kesik konusning va unga tengdosh silindrning balandliklari o'zaro teng bo'lishi uchun silindrning radiusi qanday bo'lishi kerak?
A) $\frac{104}{3}$. B) $\frac{\sqrt{208}}{\sqrt{3}}$. C) $\frac{2\sqrt{104}}{3}$. D) $\sqrt{\frac{104}{3}}$.

649. Asoslarining radiuslari 2 va 11 ga teng bo'lgan kesik konus va unga tengdosh silindrning balandliklari o'zaro teng. Silindr asosining radiusini toping.
A) 6. B) 7. C) 7,5. D) 8.

650. Konusning balandligi 24 ga, o'q kesimining perimetri 72 ga teng. Uning hajmini toping. A) 400π. B) 720π. C) 800π. D) 960π.

651. Konus asosining radiusi 2 ga, o'q kesimining uchidagi burchagi 60° ga teng. Shu konusga tashqi chizilgan muntazam uchburchakli piramidaning hajmini toping.
A) 12. B) $10\sqrt{3}$. C) $12\sqrt{3}$. D) 24.

652. $y=|x+1|$, $x=-3$, $x=0$ va $y=0$ chiziqlar bilan chegaralangan shaklning abssissalar o'qi atrofida aylanishidan hosil bo'ladigan jismning hajmini toping.
A) π. B) $1{,}5\pi$. C) 2π. D) 3π.

653. Radiusi 13 ga teng bo'lgan shar sirtiga diagonallari 30 va 40 ga teng bo'lgan romb tomonlari urinadi. Romb tekisligidan shar markazigacha bo'lgan masofani aniqlang.
A) 3. B) 4. C) 5. D) 6.

654. Radiusi 37 cm bo'lgan shar markazidan 23 cm masofada kesim o'tkazilgan. Shu kesimning yuzini toping (cm^2).
A) 720π. B) 820π. C) 840π. D) 860π.

655. Qirralari 6 ga teng bo'lgan kubga ichki chizilgan sharning hajmini toping.
A) 27π. B) 36π. C) 72π. D) 108π.

656. Kubga ichki chizilgan shar hajmi unga tashqi chizilgan shar hajmining qanday qismini tashkil etadi?
A) $\frac{\sqrt{3}}{9}$. B) $\frac{4\sqrt{3}}{3}$. C) $\frac{3\sqrt{3}}{2}$. D) $\frac{\sqrt{3}}{3}$.

657. Ikkita qo'shni tomonlarining markazlari orasidagi masofa $3\sqrt{2}$ ga teng bo'lgan kubga tashqi chizilgan shar sirtining yuzini toping.
A) 108π. B) 120π. C) 125π. D) 144π.

658. Radiusi R bo'lgan sharga balandligi H bo'lgan uchburchakli prizma ichki chizilgan. Prizmaning hajmini toping.
A) $\sqrt{3}\,H(4R^2-H^2)$. B) $\frac{3\sqrt{3}H}{16}(4R^2-H^2)$.
C) $\frac{3\sqrt{2}H}{16}(4R^2-H^2)$. D) $\frac{3\sqrt{3}H}{16}(2R^2-H^2)$.

659. Uchburchakli muntazam piramidaga tashqi chizilgan sharning markazi uning balandligini 6 va 3 ga teng bo'lgan qismlarga ajratadi. Piramidaning hajmini toping.
A) $81\sqrt{3}$. B) $\frac{243\sqrt{3}}{4}$. C) $\frac{125\sqrt{3}}{2}$. D) $\frac{729\sqrt{3}}{4}$.

660. O'q kesimining diagonali l ga teng bo'lgan silindrga shar ichki chizilgan. Shar sirtining yuzini toping.
A) πl^2. B) $\frac{\pi}{2}l^2$. C) $\frac{\pi}{3}l^2$. D) $\frac{\pi}{4}l^2$.

661. Sfera sirtining yuzi 27π ga teng. Shu sferaga ichki chizilgan eng katta hajmli silindr balandligi qanday?
A) 2. B) 3. C) $2\sqrt{3}$. D) $3\sqrt{2}$.

662. Radiusi $3\sqrt{3}$ ga teng bo'lgan sferaga ichki chizilgan eng katta hajmli silindrning balandligini aniqlang. A) 5. B) 6. C) 7. D) 8.

663. Sferaga balandligi asosining diametriga teng bo'lgan konus ichki chizilgan. Sfera sirtining yuzi 125 ga teng. Konus asosining yuzini toping. A) 10. B) 15. C) 20. D) 5π.

664. $\sin^4 x+\cos^4 x=0{,}5\sin 2x$ tenglamaning (0°; 180°) oraliqqa tegishli ildizlarini toping.
A) 45°. B) 90°. C) 120°. D) 45° va 135°.

665. Sharga balandligi asosining diametriga teng bo'lgan konus ichki chizilgan. Konus asosining yuzi 2,4 ga teng. Shar sirtining yuzini toping. A) 12,5. B) 15. C) 6π. D) 9π.

666. Radiusi 15 ga teng bo'lgan sferaga balandligi 24 ga teng bo'lgan konus ichki chizilgan. Konusning hajmini toping.
A) 512π. B) 720π. C) 852π. D) 1152π.

667. Konusning balandligi va uning yasovchisi mos ravishda 4 cm va 5 cm ga teng. Asosi konus asosida yotgan ichki chizilgan yarimsharning hajmini toping (cm^3).
A) 8π. B) $\frac{125}{1152}\pi$. C) $\frac{156}{137}\pi$. D) $\frac{1152}{125}\pi$.

668. $y=\sqrt{16-x^2}$ funksiyaning grafigi bo'lgan

egri chiziqning uzunligini toping. A) 4π. B) 6π. C) 8π. D) aniqlab bo'lmaydi.

669. OX o'qqa parallel bo'lib, $M(-3; 1)$ nuqtadan o'tuvchi to'g'ri chiziq tenglamasini tuzing. A) $x=1$. B) $x=-3$. C) $x+y=1$. D) $y-1=0$.

670. $A(0; 2)$ nuqtadan o'tib, $y=3x+1$ funksiya grafigiga perpendikular bo'lgan to'g'ri chiziq tenglamasini ko'rsating. A) $y=-x/3-2$. B) $y=-x/3+2$. C) $y=-3x-2$. D) $y=-3x+2$.

671. Koordinata boshidan o'tuvchi tekislik tenglamasini toping.
A) $2x-2y+5z=0$. B) $x+y-1=0$.
C) $x+3y+9z-1=0$. D) $x+y+1=0$.

672. Koordinata boshidan va $P(1; 2; 3)$ nuqtadan o'tuvchi to'g'ri chiziq tenglamasini toping.
A) $x=2y=3z$. B) $6x=2y=3z$.
C) $3x=2y=z$. D) $6x=3y=2z$.

673. ABC uchburchak uchlaridan va shu uchburchakning medianalari kesishgan M nuqtadan α tekislikka tushirilgan perpendikularlar asoslari mos ravishda A_1, B_1, C_1, M_1 nuqtalarda yotadi. $AA_1+BB_1+CC_1$ va MM_1 uzunliklar nisbatni toping. A) 1. B) 1,5. C) 2. D) 3.

674. Uchlari (1; 2), (3; 4), va (5; −1) nuqtalarda bo'lgan uchburchak medianalarining kesishish nuqtasi koordinatalarini toping.
A) (2; 3). B) (3; 2). C) (3; 3). D) (3; 5/3).

675. Uchlari $y_1=x^2-4x+8$, $y_2=x^2-8x+18$ va $y_3=x^2+6x+12$ parabolalarning uchlari bilan ustma-ust tushadigan uchburchakning medianalari kesishish nuqtasi koordinatalarini toping. A) $(-1; 3)$. B) $(1; 3)$. C) $(2; 3)$. D) $(3; 2)$.

676. Boshi $A(2; 4)$ nuqtada bo'lgan $\overline{AB}(3; -2)$ vektorning B nuqtasi koordinatalarini aniqlang. A) $(-5; -2)$. B) $(-1; 6)$.
C) $(5; 2)$. D) $(1; -6)$.

677. $\overline{a}(-2; 3)$ va $\overline{b}(4; 1)$ vektorlar berilgan. $\overline{m}=2\overline{a}-3\overline{b}$ vektorning koordinatalarini aniqlang. A) $(-6; 4)$. B) $(-16; 3)$.
C) $(-13; 14)$. D) $(16; -3)$.

678. $\overline{a}(1; 2; 3)$ vektorni $\overline{m}(1; 1; 0)$, $\overline{n}(1; 0; 1)$ va $\overline{p}(0; 1; 1)$ vektorlar orqali ifodalang.
A) $\overline{a}=\overline{n}+2\overline{p}$. B) $\overline{a}=\overline{m}+\overline{n}+\overline{p}$.
C) $\overline{a}=\overline{m}+\overline{p}-2\overline{n}$. D) $\overline{a}=2\overline{m}-3\overline{p}$.

679. Agar $|\overline{AB}|=|\overline{AC}|=|\overline{AB}+\overline{AC}|=4$ bo'lsa, $|\overline{CB}|$ qanday bo'ladi?
A) $2\sqrt{3}$. B) 4,5. C) $4\sqrt{2}$. D) $4\sqrt{3}$.

680. $\overline{a}(1; -2; 2)$ va $\overline{b}(2; -2; -1)$ vektorlar berilgan. $2\overline{a}^2-4(\overline{a}\,\overline{b})+5\overline{b}^2$ ifodaning qiymatini toping. A) 44. B) 45. C) 46. D) 47.

681. Muntazam uchburchak ichida olingan nuqtadan uning tomonlarigacha bo'lgan masofalar $\overline{a}(1; 2; 3)$, $\overline{b}(1; 2; 1)$ va $\overline{c}(2; 3; 1)$ vektorlarning modullariga teng. Shu uchburchakning balandligini toping.
A) 16. B) 18. C) $\sqrt{6}+\sqrt{14}$. D) $2\sqrt{14}+\sqrt{6}$.

682. $\overline{a}(1; 4; 2\sqrt{2})$ vektorga qarama-qarshi yo'nalan birlik vektorni toping.
A) $\overline{n}\left(-\frac{1}{5}; \frac{4}{5}; \frac{2\sqrt{2}}{5}\right)$. B) $\overline{n}\left(\frac{1}{5}; \frac{1}{5}; -\frac{2\sqrt{2}}{5}\right)$.
C) $\overline{n}\left(-\frac{1}{5}; -\frac{4}{5}; -\frac{2\sqrt{2}}{5}\right)$. D) $\overline{n}\left(\frac{1}{5}; -\frac{4}{5}; \frac{2\sqrt{2}}{5}\right)$.

683. m ning qanday qiymatida $\overline{a}(1; -1)$ va $\overline{b}(-2; m)$ vektorlar kollinear bo'ladi?
A) −3. B) −2. C) 1. D) 2.

684. $\overline{a}(1; 2; -1)$ va $\overline{b}(2; 2; 0)$ vektorlar berilgan. $\overline{c}(x; y; -6)$ vektor $2\overline{b}-3\overline{a}$ vektorga kollinear. $|\overline{c}|$ ning qiymatini toping.
A) 8. B) 13. C) $2\sqrt{13}$. D) $2\sqrt{14}$.

685. Uchlari $A(1; 1)$, $B(-2; 3)$, va $C(-1; -2)$ nuqtalarda bo'lgan uchburchakning A va B burchaklarini toping. A) 30°; 90°.
B) 45°; 90°. C) 60°; 30°. D) 90°; 45°.

686. $\overline{a}(-6; 3; 3)$ va $\overline{b}(3; -3; 0)$ vektorlar berilgan. $2\overline{a}$ va $1/3\,\overline{b}$ vektorlar orasidagi burchakni toping.
A) 60°. B) 120°. C) 135°. D) 150°.

687. Parallelogrammning $A(-3; -2; 0)$, $B(3; -3; 1)$ va $C(5; 0; 2)$ uchlari berilgan. $\overline{AC}$ va $\overline{BD}$ vektorlar orasidagi burchakni toping.
A) 60°. B) 120°. C) 135°. D) 150°.

688. $A(-4; 1; 1)$, $B(1; 4; 0)$, $C(1; -2; 2)$ va $D(-5; -5; 3)$ nuqtalar berilgan. $\overline{AC}$ va $\overline{BD}$ vektorlar orasidagi burchakni toping.
A) 30°. B) 45°. C) 60°. D) 90°.

689. $(63x-61)^4$ ifodaga teng standart shakldagi ko'phadning koeffitsientlari yig'indisini toping. A) 8. B) 12. C) 14. D) 16.

IZOHLAR

1. Nomeri to'rtburchak (□) ichiga olingan savollar qaytarilgan savollardir.
2. Nomeri yulduzcha (*) bilan belgilangan masalalar xatoli masalalar edi. Ularning xatolari to'g'rilangan.
3. Testlarning matnlari asl nusxadagi bilan aynan bir xil emas, chunki ular tahrir qilingan.

2013 yil matematika testining to‘g‘ri javob kodlari

(Javoblarning o‘rni almashtirilgan.)

№	Nomerning oxirgi raqami										№	Nomerning oxirgi raqami									
	0	**1**	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**	**7**	**8**	**9**		**0**	**1**	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**	**7**	**8**	**9**
0		C	B	D	B	D	B	A	B	A	**35**	B	A	B	C	D	B	B	A	D	B
1	C	C	D	A	C	C	C	B	A	A	**36**	A	A	B	C	A	C	A	C	B	C
2	B	B	A	D	A	A	C	C	C	B	**37**	B	A	D	B	A	B	A	D	D	C
3	C	A	C	A	D	C	A	B	A	B	**38**	A	B	D	D	D	C	B	B	B	B
4	C	B	B	C	A	A	D	B	C	B	**39**	D	C	D	B	A	D	D	D	A	B
5	A	D	C	D	A	A	B	D	D	B	**40**	A	D	D	D	B	D	A	C	D	A
6	B	C	A	B	B	C	B	B	C	D	**41**	C	D	B	C	C	D	D	B	A	B
7	A	C	C	A	A	A	A	B	B	D	**42**	D	B	B	C	D	B	D	A	C	D
8	D	B	D	C	D	B	B	B	D	B	**43**	C	C	C	D	B	A	A	D	D	C
9	C	C	D	A	C	C	B	B	D	A	**44**	D	B	D	D	D	A	A	C	C	D
10	A	A	A	D	D	B	C	A	B	A	**45**	A	A	B	C	D	A	C	C	D	D
11	D	D	A	C	D	B	B	D	C	C	**46**	D	C	D	D	A	D	C	A	D	B
12	C	C	D	D	B	D	A	C	A	C	**47**	D	D	D	B	C	B	B	A	D	D
13	B	A	D	B	A	B	D	C	C	B	**48**	C	A	D	C	A	C	A	C	D	A
14	B	B	B	C	A	D	C	A	C	B	**49**	C	C	A	C	C	D	C	B	B	C
15	B	B	B	A	A	C	B	D	D	D	**50**	A	D	B	D	C	B	B	B	D	D
16	B	D	B	B	B	B	D	B	A	A	**51**	B	A	A	A	C	D	B	A	C	D
17	D	B	A	A	A	D	A	B	C	B	**52**	A	B	B	A	D	B	B	B	D	D
18	C	D	A	A	D	D	B	C	D	B	**53**	D	B	C	D	B	B	C	C	B	D
19	D	B	D	A	C	B	D	D	A	D	**54**	B	D	A	D	D	C	B	D	C	C
20	B	B	D	C	A	A	D	C	B	A	**55**	C	C	A	B	B	C	C	A	C	B
21	A	C	C	C	D	B	D	A	D	B	**56**	D	A	C	C	B	D	C	C	C	C
22	D	B	D	A	D	C	B	B	A	A	**57**	A	D	A	A	C	A	B	C	D	A
23	B	A	D	D	C	C	D	D	B	A	**58**	B	B	A	B	C	A	D	C	B	D
24	A	C	B	A	C	D	B	D	A	C	**59**	D	D	C	B	D	B	C	C	A	C
25	D	B	C	D	D	C	C	C	D	B	**60**	C	B	D	B	D	C	C	D	B	A
26	C	D	A	A	B	C	A	D	C	A	**61**	C	C	A	C	B	C	D	A	C	C
27	D	C	B	D	B	D	D	D	C	C	**62**	C	B	B	D	C	B	D	D	B	C
28	D	A	B	B	A	A	B	D	C	B	**63**	C	B	B	B	C	D	B	A	D	A
29	C	D	C	A	B	D	D	D	C	B	**64**	D	A	C	A	D	C	C	C	D	B
30	D	D	B	C	B	C	A	A	D	D	**65**	C	D	D	C	C	B	A	A	B	B
31	D	A	D	B	D	C	C	A	C	B	**66**	D	B	B	C	A	B	D	D	A	D
32	A	C	D	D	A	D	D	D	B	C	**67**	B	A	D	D	D	B	C	B	A	D
33	D	B	C	A	B	D	C	D	C	B	**68**	D	D	C	D	D	D	D	B	D	D
34	C	A	B	A	D	B	C	C	C	A	**69**										
№	**0**	**1**	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**	**7**	**8**	**9**	№	**0**	**1**	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**	**7**	**8**	**9**
	Nomerning oxirgi raqami											Nomerning oxirgi raqami									